XALQ DEPUTATLARI YANGIOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-09-3-54-K/24 Yangiobod tumani

Yangiobod tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalari, tuman Soliq inspeksiyasining 2024-yil 4-kekabrdagi 14-02393-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan xalq deputatlari Yangiobod tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Yangiobod tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsiyentlarni tasdiqlash to‘g‘risida tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Suyunovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yangiobod tumanida joylashgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2025-yilda soliq stavkasiga qo‘llanadigan koeffitsiyentlar miqdori 1- va 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi ilovalarda ko‘rsatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilsin.

4. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari R.Abdug‘aniyev, tuman soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Suyunov ushbu qaror kuchga kirgandan so‘ng besh kunlik muddat ichida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun 2025-yilga belgilangan soliq stavkalarini jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilishi ta’minlansin.

5.Tuman soliq inspeksiyasi 2025-yil uchun qishloq xo‘jaligida mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini xalq deputatlari

tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan stavkalar asosida hisoblanishi va belgilangan tartibda undirilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror “Yangiobod ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

7. Qaror 2025-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Abdug‘aniyev zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi



QARSHIBOYEV IBROHIM BOLTAYEVICH

Xalq deputatlari Yangiobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-09-3-54-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) **mutloq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar**

T/R	**Hududlar**	**Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffitsiyent** ***(0,7 - 3,0)***		**Hududlar kesimida 1 kv. m. uchun yer solig‘i so‘mda**
		Kamaytiruvchi	**Oshiruvchi**	
1.	Yangiobod SHFY	0.85		299.20
2.	Sovot QFY	0.80		281.60
3.	Balandchaqir MFY	0.75		264.00
4.	Xo‘jamushkent QFY	0.78		274.56
5.	Do‘stlik MFY	0.78		274.56
6.	Havotog‘ QFY	0.75		264.00
7.	Shodlik MFY	0.78		274.56
8.	Sarmich MFY	0.75		264.00

Xalq deputatlari Yangiobod tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-09-3-54-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/R	Hududlar	Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffitsiyent *(0,7 - 3,0)*		Hududlar kesimida 1 gektar uchun yer solig‘i stavkasi mln. so‘mda
		Kamaytiruvchi	Oshiruvchi	
1.	Yangiobod SHFY	0.75		35 640.00
2.	Sovot QFY	0.75		35 640.00
3.	Balandchaqir MFY	0.70		33 264.00
4.	Xo‘jamushkent QFY	0.70		33 264.00
5.	Do‘stlik MFY	0.70		33 264.00
6.	Havotog‘ QFY	0.70		33 264.00
7.	Shodlik MFY	0.70		33 264.00
8.	Sarmich MFY	0.70		33 264.00